

Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar oyi uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar oyida, Navoiy viloyatida jami 589,4 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 100,6 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, % da
Navoiy viloyati	589,4	100,6
Navoiy sh	123,2	110,6
Zarafshon sh	27,2	105,2
G'ozg'on sh	0,8	101,7
Konimex tumani	4,7	115,1
Qiziltepa tumani	70,6	114,2
Navbahor tumani	39,4	165,8
Karmana tumani	39,4	121,1
Nurota tumani	43,1	2,5 m
Tomdi tumani	25,4	32,0
Uchquduq tumani	13,2	30,8
Xatirchi tumani	30,8	118,0

1 Viloyat bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2026-yilning yanvar oyida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 77,0 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 98,4 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 18,3 % ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 118,3 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 4,7 % ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 82,1 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxona turlari kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	85,9	9,4	0,1
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	68,2	27,7	191 m
Kichik korxona va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	154,5	98,5	27,5
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	109,9	171,6	81,9
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	213,5	-	-
<i>o'sish sur'ati, % da</i>	110,0	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 95,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 59,6 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 11,4 % ga kamayib, 16,2 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 47,6 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 121,1 % ni tashkil etgan holda 280,5 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 36,2 % ni yoki 213,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 110,0 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Navoiy viloyati	95,4	280,5	213,5	59,6	121,1	110,0
Navoiy sh	26,2	88,2	8,8	90,4	118,3	112,5
Zarafshon sh	-	26,4	0,8	-	104,9	118,9
G'ozg'on sh	-	0,02	0,7	-	109,2	101,5
Konimex tumani	1,2	0,9	2,6	163,5	91,8	110,4
Qiziltepa tumani	2,8	65,5	2,3	88,8	115,0	133,6
Navbahor tumani	-	29,8	9,6	-	2,1 m	106,6
Karmana tumani	0,6	20,0	18,8	2,1 m	111,6	131,7
Nurota tumani	24,5	13,7	4,9	40,8 m	109,0	116,6
Tomdi tumani	19,3	5,5	0,6	24,8	6,1 m	103,2
Uchquduq tumani	8,8	1,8	2,6	22,8	102,7	105,8
Xatirchi tumani	1,0	9,5	20,3	152,2	103,0	125,2

2 Viloyat bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Nurota tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 40,8 m), Karmana tumanida (2,1 m), Konimex tumanida (163,5 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Tomdi tumanida (2025-yilning mos davriga nisbatan 6,1 m), Navbahor tumanida (2,1 m) va Navoiy shahrida (118,3 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-jon-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M. Bahronov
79 223-54-73 (85-20)

Manzil:

